

## KO‘K QORAKO‘L QO‘YLARNI YARATILISHIDA QO‘LLANILGAN SELEKSION USULLARI

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar  
universitetining Toshkent filiali*

*Zooinjeneriya va ipakchilik kafedrasida dotsenti*

***Eshdavlatov Orif Zokirvich***

*Zooinjeneriya va ipakchilik kafedrasida assistenti*

***Ko‘charov Sirojiddin Yo‘ldosh o‘g‘li***

*Zooinjeneriya va ipakchilik kafedrasida assistenti*

***Sharifov Davlat Ma‘ruf o‘g‘li***

***Annotatsiya:*** Ko‘k rangli qo‘ylar seleksiyasi zavod tipilarining yaratilishida qo‘llanilgan seleksion usullari, qo‘ylarining yaratilish tarixi, ularning zavod tiplarining barpo etilishida foydalanish yo‘llari, ularning qorako‘lchilik xo‘jaliklarida qo‘llaniladigan usullarni tadbiq etilish jarayonlari haqida so‘z yuritilgan va ularni ishlab chiqarishda joriy etilganligidagi natijalari haqida yoritilgan.

***Kalit so‘zlar:*** seleksiya, irsiyat, sovliqlar, qo‘chqorlar, qalamgul, inbriding, surlilik, juftlash, ressesiv, fenotip, gomozigota, elita, albinoid, geterogen, dominant.

Ko‘k rang qorako‘l qo‘ylarning kelib chiqishi to‘g‘risida qorako‘lchi olimlar hamon bir to‘xtanga kelolmaganlar. Masalan, M.S.Karpov, S.V.Ponyatovskiy va ularning hamfikrlari ko‘k qorako‘l qo‘ylari boshqacha yo‘l bilan ya‘ni boshqa qo‘y zotlaridan kelib chiqarilgan desalar, ikkinchi guruh olimlar P.A.Arapov, B.N.Vasin, V.I.Stoyanovskaya, N.S.Gigineyshivili va boshqalar bu fikrni asossiz hisoblashganlar. Ko‘k rang qorako‘l qo‘ylarini qora rang qo‘ylardan farq qildiruvchi asosiy xususiyatlardan biri, bir xil rangli

qo'ylarni o'zaro juftlash (ko'k - ko'k) dan olingan ko'k rang qo'zilar hayotchanligining pasayib ketishidir. O'z vaqtida B.N.Vasin ko'k rangli hayvonlarni o'zaro juftlashdan olingan ko'k qo'zilar ma'lum qismining letal (o'limga olib keluvchi) irsiy omil bo'yicha bir xil zigota (gomozigota)li bo'lganligidan o'lib ketishini nazariy asoslab bergandi. Har qanaqa sharoitda ham faqat ko'k rangi bo'yicha har xil zigotali (geterazigotali) ko'k qo'zilargina o'z yashovchanligini, urchish xususiyatlarini saqlab qolaoladi. Rangi bo'yicha bir xil (gomogen) juftlashdan olingan ko'k qo'zilarning 1/3 qismi bir xil zigota (gomozigota) li hisoblanadi va faqat ana shu qismiga tegishli qo'zilargina voyaga yetmasdan o'ladilar. Ko'k qorako'l qo'ylari bilan olib boriladigan naslchilik ishlari havorang, marvarid rang, kumushrang va oq "oralagan" rangbarangliklardagi eng qimmatli navlari chiqimini keskin oshirish yo'li bilan ko'k qorako'lning sifatini takomillashtirishga qaratilishi lozim. Ko'k qorako'l qo'ylarini urchitishda rangi bo'yicha bir xil (gomogen) va har xil (geterogen) juftlash usullaridan foydalaniladi.

Ko'k qorako'l qo'ylarini rangi bo'yicha har xil usul bilan urchitishni birinchilardan bo'lib B.N.Vasin taklif qilgandi. Bunda u ko'k qorako'l qo'ylari bilan juftlashda irsiyatida ko'k rangli qo'ylar qoni singdirilgan seleksion otasi yoki onasi ko'k rangli bo'lgan qora qo'chqorlardan foydalanishni, ya'ni berk suruv ichida geterogen urchitishni tavsiya qilgandi. Bu tushunchaning negizini mazkur qo'chqorlar irsiyati (genotipi) da ko'k qorako'lning maqsadga muvofiq belgi va xususiyatlari shaklanishiga yordam beraoladigan omillar mavjudligi haqidagi g'oya tashkil qiladi. Tabiiyki juftlanuvchi qora rang hayvonlardan olingan qora rang qo'chqorlar irsiyatida bunaqa omillar bo'lmaydi. Qo'ylarni juftlashning bu tartibi xo'jalik suruvida shu ikkala rang qo'ylarning miqdoriy salmoqlari muvozanat darajasida bo'lishini, ko'k sovliqlar bilan juftlash uchun mo'ljallangan qora rang qo'chqorning yoki otasi, yoki onasi ko'k rangli bo'lishini, qora rang sovliqlarning ko'k rang qo'chqorlar bilan juftlanishini taqazo etadi. Ko'ksuruv ichidagi barcha qora rang sovliqlar ko'k rang qo'ylarning avlodi bo'lishi kerak. Ammo V.M.Stoyanovskayaning ta'kidlashicha urchitishning bu

xil, tartibi qora rang qo‘ylar irsiyatida nomaqbul biologik xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan ko‘k rang hosil qiluvchi irsiy omillar salmog‘ining oshishi tug‘iladigan qo‘zilarda mahsuldorlik va hayotchanlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Mazkur targ‘ibotiga zid tarzda, olima ko‘k rang sovliqlar bilan juftlashga qora rangli ota-onadan olingan qora qo‘chqorlardan, qorarang sovliqlar bilan juftlashda ko‘k rang ota-onadan tug‘ilgan ko‘k rang qo‘chqorlardan foydalanishni taklif qildi. Olimlarning fikricha juftlashning mazkur tartibi olingan ko‘k rang avlodlar hayotchanligining sezilarli darajada yaxshilanishini, maqsadga nomuvofiq belgilari (bo‘sh konstitusiyalik, teri qalinlashuvi, tola o‘siqligi) jamlanishning oldini olish imkonini beradi. Har xil rangli qo‘ylarni juftlash usuli bilan barcha ko‘k rangli qo‘zilarning kafolatli hayotchanlikka ega bo‘lishini ta‘minlash yo‘li bilan qo‘zilar chiqimining oldini olish imkonini beradi. Ammo, mazkur usul qo‘llanilganda notekis rangli, to‘q tusli qo‘zilar salmog‘i oshadi, rangbaranglik bo‘yicha seleksiya ishlarini qiyinlashtiradi. Shu munosabat bilan Gagarin nomli (hozirgi “Oq qopchig‘ay”) DNZda ko‘k rangli qorako‘l qo‘ylarni bir xil rangli juftlash usuli ishlab chiqilgan.

Bir xil rangli hayvonlarni juftlash ko‘k qora-ko‘k qorako‘l qo‘ylarning seleksiyalanuvchi belgilar bo‘yicha barqaror irsiyatli suruvlarni yaratish imkonini beradi. Ammo urchitishning ta‘riflangan usuli ayrim kamchiliklardan ham holi emas. Masalan, bu usulda ko‘k qo‘zilarning 1/3 qismi hayotga layoqatsiz (albinoid) bo‘ladi, ularning konstitusiyasi mo‘rt bo‘lib o‘z tengqurlaridan o‘shish va rivojlanish bo‘yicha ortda qoladi. Ko‘k qo‘zilarning pigmentlanish darajasi bilan hayotchanligi o‘rtasida ma‘lum bog‘lanish mavjudligi aniqlangan. N.S.Giginashivili ana shu ko‘rsatkichlarga tayanib ko‘k qorako‘l qo‘zilarini ikkiga, ya‘ni hayotchan va yashashga layoqatsiz guruhlariga bo‘lishni taklif qilgan. Tanasining ma‘lum qismi va organlarida (og‘iz bo‘shlig‘i til bilan birga, burun oynasi, lablari ko‘zining shilliq pardalari, tuyog‘i, quloq suprasi) rang zarralari (pigment) ning bor yo‘qligi qarab yashashga layoqatsiz ertaroq, aniqrog‘i ular tug‘ilgan paytda aniqlash usulini taklif qildi. Bu usulga hayotchanlikni erta aniqlash (ROJ) usuli deb ataladi. Bu usulning uzoq yillar davomida O‘zbekiston

Respublikasining Surxondaryo viloyatiga qarashli Gagarin nomli (hozirgi “Oq qopchig‘oy”) DNZ da N.S.Gigineyshivili rahbarligida muvofaqiyatli qo‘llanilishi ko‘k qorako‘l qo‘ylarning ikkita sermahsul zavod tipini yaratish imkonini berdi. Ko‘k qorako‘l qo‘ylarini urchitishga ixtisoslashgan xo‘jaliklar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, naslchilik ishlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan taqdirda rangi bo‘yicha bir xil juftlashda ham, har xil juftlashda ham qora rang qorako‘lning sifati pasaymaydi. Yugorida aytilganlarga muvofiq ko‘k qorako‘l qo‘ylarini urchitishga ixtisoslashgan naslchilik xo‘jaliklarining bosh vazifasi mazkur sohani nafaqat tashqi ko‘rinishi (fenotipi) bo‘yicha, balki irsiyati (genotip) bo‘yicha ham yuqori nasl, hislatiga ega bo‘lgan hamda qo‘ylar mahsuldorligini ko‘paytirish, ishlab chiqarilayotgan qorako‘lning tovar xususiyatlarini yaxshilash, provard natijada ko‘k suruvlarining umumiy sifatini yaxshilovchi ko‘k rang qo‘chqorlar bilan ta‘minlashdan iborat.

**Janubiy-O‘zbekiston zavod tipi.** O‘zbekistonning ko‘k qorako‘l qo‘ylarini rangi bo‘yicha bir xil juftlash yo‘li bilan urchituvchi yagona xo‘jalik hisoblangan Gagarin nomli naslchilik zavodida yaratilgan. Bunda seleksionerlar birinchi marta ko‘k qorako‘l qo‘ylarini rangbarangliklar bo‘yicha tanlash va juftlash, qon qarindosh urchitish (inbriding), liniyalar yaratish va ulardan foydalanish, ko‘k rangli qo‘zilar yashovchanligini barvaqt aniqlash uslubini ishlab chiqarish va amalga joriy qilish masalalarini batafsil ishlab chiqishdi.

Ko‘k rang qorako‘l qo‘ylari bilan yuritilishi lozim bo‘lgan naslchilik ishlarining yangi tizimi ishlab chiqildi va unga ko‘ra quyidagilar qo‘llanildi:

- barcha sovliq suruvlarida bir xil rangli hayvonlarni juftlash;
- ko‘k rangli qo‘zilarning yashovchanligini barvaqt aniqlash;
- rangbarangliklar bo‘yicha tanlash va juftlash, yangi rangbarangliklar yaratish;
- gullarning tarkibiy tuzulishini takomillashtirish va uzun qalamgulli ko‘k qorako‘l olish;
- ko‘k qorako‘l qo‘chqorlarning liniyalarini yaratish va ulardan foydalanish.

Rangi bir xil hayvonlarni juftlash tartibi “elita” va I-klass qo‘zilar chiqimining, ham qora, ham ko‘k I-nav qorako‘l salmog‘ining oshishiga olib keladi. Ko‘k rangli qorako‘lning qimmatli nafaqat rangbarangliklarining chiroyi bilan, balki kuchli yaltiroqligi, a‘lo darajdagi ipaksimonligi, eng asosiysi uzun yarimdoirasimon va boshqa xil qalami gullar hosil qiluvchi manzarali naqshlari bilan ham belgilanadi. Shu sababli seleksiya ana shu belgilarni birga qo‘shib o‘zaro uyg‘unlashtirish yo‘li bilan yuritiladi, bunda tanlov dastavval bir belgi bo‘yicha amalga oshirilib, ko‘zlangan darajaga erishilgach boshqasi bo‘yicha undan keyin uchinchisi va hokazolar bo‘yicha olib boriladi.

Qishloq xo‘jalik Vazirligi tomonidan mazkur zavod tipining mualliflari qilib N.S.Gigineyshivili, K.N.Serobryanskaya, D.X.Xuchiyev, R.Itolmasovlar tan olingan.

**Nurota zavod tipi.** Nurota tog‘ tizmalarining etagida joylashgan va ko‘k rangli qorako‘l ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Nurato" sovxozida yaratilgan.

Bu xo‘jalikning ko‘k qo‘ylar galasi sobiq "Qoravul Bozor" sovxozining ko‘k qo‘ylaridan kelib chiqqan. Bu qo‘ylar 1937 yilda "Qizil Chorvador" sovxoziga olib borilgan va shu yerda urchitilgan; xo‘jaliklarni ixtisoslashtirish rejasiga binoan 1944 yilda ular "Nurato" sovxoziga berilgan.

1946-yildan buyon xo‘jalikdagi seleksiya-naslchilik ishlari uzun va o‘rta uzunlikdagi qalami gullari bo‘lgan aniq rasmlı, o‘rta va to‘q havorangdagi qisqa tolali ko‘k qo‘zilar olishga qaratildi. Tolalar o‘siqligini tugatish, qalami gullar uzunligini oshirish maqsadida jaket va o‘siq gulli (kavkaz) tip sovlıqlar qisqa tolali yassi, qovurg‘asimon tipli qo‘chqorlar bilan juftlangan. Jaket barra tipli qo‘ylar bir xil tipli juftlash usuli bilan urchitildi. Zavod tipini yaratish jarayonida rangi bo‘yicha har xil juftlash qo‘llanilgandi. Qo‘ylari tog‘ oldi va qumli cho‘l sharoitiga yaxshi moslashgan. o‘zlariga xos belgilarni avlodlariga barqaror tarzda o‘tkaza oladi. Zavod tipi qishloq xo‘jalik vazirligi tomonidan 1970 yilning aprel oyida tasdiqlangan va uning mualliflari sifatida V.I.Stoyanovskaya. O.P.Fisenko, X.Egamov, Ya.Nurumbetov, U.V.Valiyevlar rasman tan olingan.

Bu zavod tipining qo'chqorlaridan Samarqand viloyatining "Komsomol 50 yilligi", "Qo'shrabot", "Oktyabr 50 yilligi" va "Kirov" nomli, Jizzax viloyatining "Chim qo'rg'on", Ilich nomli sovxozlarida keng foydalanilgan.

**G'uzor zavod tipi.** Hisor tog' tizmalarining shimoliy-g'arbiy yonbag'rlarida joylashgan O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatiga qarashli "G'uzor" Davlat naslchilik zavodida yaratilgan. Xo'jalikda yuritilgan naslchilik ishlari qo'y suruvlarini xillash va seleksiya yuritishni, ko'k rangli, rangbarangligi, klassi va barra tipi bo'yicha bir xil ko'rsatkichli sovliq suruvlari tuzish, avlodlarni sifati bo'yicha nasllik qo'chqorlarni baholashni o'z ichiga oladi. 10-15 kunligida takroriy ko'zdan kechirilib, baholash chog'ida nasl sifati tekshirilajak qo'chqorchalar yangi tug'ilgan chog'idagi xos belgi va xususiyatlarini nisbatan to'liqroq saqlagan bo'lishi kerak, chunki shu asosda nasllik qo'chqorlarning umumiy zavod bahosi chigariladi. Nasl sifati baholanayotgan har bir qo'chqor 140-150 bosh qora va ko'k rang qo'zilar olishni ta'minlaydigan miqdordagi sovliqlar bilan juftlanishi lozim bo'ladi. Qishloq xo'jalik Vazirligi 1978 yilda mazkur qo'ylar galasini "Havo rangli rangbaranglikdagi ko'k rang qorako'l qo'ylarning G'uzor zavod tipi" nomi bilan tasdiqlandi. Zavod tipining mualliflari sifatida Ya.N.Nurillayev, R.Yu.Xabibulin, S.M.Mamatov, T.I.Mamadiyorov, Ye.S.Strokova, M.I.Ismatov, K.A.Aminov, A.P.Nestorova, R.Sh.Muxammadiyevlar rasman tan olindi. "G'o'zor" DNZ ga Jizzax viloyatining G'.Gulom nomli, "Qizil Chorvador", K.Marks nomli, U.Yusupov nomli sovxozlar berkitilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sobirov P.S. Genetika va biotexnologiya asoslari. Samarqand-2006
2. Nosirov U.N., Nosirov G.U., T.U.Nosirov-Chorvachilikda klassik va zamonaviy seleksiya usullari. Toshkent. 2008.
3. Zakirov M.D, Yusupov S.Yu. "Каракулеводство" Toshkent-1991.